



**TA'LIM - TARBIYA JARAYONINING PEDAGOGIK - PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI.**

Andijon davlat pedagogika institute “Maktabgacha ta’lim va maxsus Pedagogika “
fakulteti sirtqi ta’lim 305-guruh talabasi
Sohobova Oyshaxon Asatullo qizi

Annotatsiya ; Maqolada Yurtboshimizning tarbiya haqidagi so’zlari, ta’lim-tarbiya jarayoni, tarbiya haqida tushuncha, psixologiyada tarbiya tushunchasi, oila tarbiyasi, shaxs shakllanishida tarbiyaning o’rni va oilada mehnat tarbiyasi, tarbiya to’g’risida fikrlar hamda maktabgacha yoshdagi bolalarda tarbiyaning o’ziga xosliklari haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: ta’lim, tarbiya, jarayon, tarbiyali bo’lish, oila tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, kognitiv tizim tarbiya, psixoterapiya, psixokorreksiya, psixoanaliz, xulq atvorli bo’lish, tarbiya ehtiyojlari.

Аннотация: В статье рассматриваются высказывания нашего Президента о воспитании, образовательном процессе, понятии воспитания, понятии воспитания в психологии, семейном воспитании, роли воспитания в формировании личности и трудовом воспитании в семье, размышления о воспитании и особенностях воспитания детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: образование, воспитание, процесс, воспитание, семейное воспитание, трудовое воспитание, когнитивное воспитание, психотерапия, психокоррекция, психоанализ, поведенческое бытие, потребности в воспитании.

Abstract: The article discusses the words of our President about upbringing, the educational process, the concept of upbringing, the concept of upbringing in psychology, family upbringing, the role of upbringing in personality formation and labor upbringing in the family, thoughts on upbringing, and the specifics of upbringing in preschool children.

Keywords: education, upbringing, process, being educated, family upbringing, labor upbringing, cognitive upbringing, psychotherapy, psychocorrection, psychoanalysis, being behavioral, upbringing needs.



KIRISH.

“Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti.

Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da‘vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz?

Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”.

“Agar mendan sizni nima qiynaydi?” deb so‘rasangiz, farzandlarimizning ta‘lim va tarbiyasi deb javob beraman _ SH.MIRZIYOYEV.

“Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy ananalarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz”, -deydi muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev

Ta‘lim – bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta‘lim jarayonida ma‘lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta‘lim tor ma‘noda o‘qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli tipdagi o‘quv yurtlarida o‘qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish. va boshqa sohalarda ma‘lumot berish jarayonini ham bildiradi.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy ma‘naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta‘minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yigindisi.

Tarbiya insonning insonligini ta‘minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta‘minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o‘tadi.

Jarayon — bu bir-birini almashtirib turuvchi hodisalar natijasida rivojlanish, biror natijaga erishish uchun ketma-ket harakatlar va ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalarda davom etuvchi, uzluksiz harakatni bildiradi. Jarayonlar miqyosiga ko‘ra global, mintaqaviy va milliy bo‘lishi mumkin va uzoq yoki qisqa vaqt davomida yuz berishi mumkin.



- **Boshlanish va tugallanish jarayoni:** Har qanday jarayon biror natijaga erishish uchun sodir bo'ladigan ketma-ket harakatlar yig'indisidir (masalan, ishlab chiqarish jarayoni).
- **Siyosiy va huquqiy jarayon:** Sudda ishni ko'rish, sud majlisi, muhokama kabi tartib-qoidalar ham jarayon hisoblanadi.
- **Ijtimoiy jarayonlar:** Bu jarayonlar sabab va oqibat munosabatlarida namoyon bo'lib, jamiyatning umumiy kayfiyatiga salbiy yoki ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
- **Muddati va miqyosi:** Jarayonlarning miqyosi umumbashariy, mintaqaviy va milliy bo'lishi mumkin.
- **Boshqaruv jarayoni:** Jarayonlar odamlarning kuchi va qudratiga bog'liq bo'lib, ularni boshqarish va maqsad sari yo'naltirish muhimdir.

Ta'lim jarayoni – bu bilim, malaka va ko'nikmalar berish, odamni hayotga va mehnatga tayyorlash jarayonidir. Tarbiya esa ta'limni o'z ichiga olgan kengroq, umrboqiy jarayon bo'lib, shaxsni shakllantirishga qaratilgan. Ta'lim tor ma'noda o'qitishni anglatadi, tarbiya esa oila, ishlab chiqarish va jamiyatning barcha sohalarida amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayoni

- Bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilish.
- Odamni hayotga va mehnatga tayyorlash.
- Maxsus o'quv yurtlari, oila, ishlab chiqarish kabi turli joylarda amalga oshiriladi.

Tarbiya jarayoni

- Ta'limni o'z ichiga oladi, shuning uchun undan ko'ra kengroq va mukammaldir.
- Shaxsni shakllantirishga qaratilgan.
- Oila, jamiyat, ta'lim muassasalari kabi barcha sohalarida davom etadi.

Ta'lim va tarbiya munosabati

- **Bir-birini to'ldiradi:** Ta'lim tarbiyaning bir qismi bo'lsa, tarbiya ta'limni o'z ichiga oladi.
- **Maqsadlari:** Ta'lim ma'lumot berishga qaratilgan bo'lsa, tarbiya insonni barkamol shaxs qilib tarbiyalashni nazarda tutadi.



Demak, Ta'lim bilan Tarbiya o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi.

Pedagogik psixologiyada tarbiya tushunchasi_ shaxs ongni muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantirish jarayoni, kishilarning ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy aktiv ishtirok etishga qaratilgan barcha ta'sirlar majmui. Tarbiya bu alohida jarayon emas, balki o'qitishning bir tomoni bo'lib, u bilan umumiy va farqli tomonlarga ega. Bilim berish va tarbiyaga, asosan, insonning ijtimoiy ko'nikma olish mexanizmining o'ziga xos jihatlarini kiritish mumkun.

Tarbiya jarayonining ilmiy asoslari bilan psixologiyadan tashqari

- _ falsafa;
 - _ sotsiologiya;
 - _ pedagogika
- fanlari shug'ullanadi.

Tarbiyaning asosiy turlari oiladagi tarbiya va ijtimoiy tarbiyadir. Tarbiya ijtimoiy hayotning muhim funksiyasidir. Tarbiya shaxsning individual taraqqiyoti, axloqiy, jismoniy kamolotida yetakchi rol o'ynaydi.

Kognitiv tizim, kognitiv tuzilma ([lotincha](#): *cognitio* „idrok, tasavvur qilish, ishning tahlili“) — xarakter, tarbiya, kuzatish va atrofdagi dunyoni aks ettirish natijasida ongda rivojlangan bilimlar [tizimi](#) (shaxsning). Ushbu tizimga asoslanib, maqsadlar qo'yiladi va ma'lum bir vaziyatda qanday harakat qilish kerakligi haqida qarorlar qabul qilinadi, [kognitiv dissonansdan](#) qochishga harakat qiladi. Kognitiv tizimning asosi — [fikrlash](#), ong, [xotira](#) va [tilning](#) o'zaro ta'siri; bunday tizimning tashuvchisi insonning miyasi.

Kognitiv tarbiya ta'siri kishining bilim tizimlariga yo'naltirilgan bo'lib uni o'zgartirish mukammallashtirishni maqsad qilib qo'yadi.

“Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga va mashqqa”
_ degan edi ulug' olim Arastu. Ana shu g'oyalarga asoslangan holda tarbiyachilar quyidagilarga amal qilishlari lozim;

- _ tarbiyada ulg'ayayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish;
- _ milliylikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish, jahon madaniyatining ilg'or tajribalariga asoslanish;
- _ ulg'ayayotgan inson faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish;
- _ qiziqarli, to'laqonli ulg'ayayotgan inson yosh jihatlariga mos hayot iqlimini yaratish;

Oila tarbiyasi- oilada ota-onalar, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni



tarbiyalash. Oila qanchalik tartibli bo'lsa bolaning shunchalik muvaffaqiyatli bo'lishiga asos bo'ladi.

Ma'lumki, shaxsning rivojlanganlik darajasini ta'minlovchi asoslar dastlab oilada yaratiladi.

Birinchi prezidentimiz I.A.KARIMOV ta'kidlaganidek “ Bola tug'ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf- odatlar bola zuvalasini shakllantiradi” - degan so'zlari bejizga aytilmagan. Oiladagi muhit ham bola tarbiyasida asosiy rol o'ynaydi.

Oilada mehnat tarbiyasi bolalarni uy yumushiga jalb etishdan boshlanadi. Bolaning ilk mehnat tajribasi kelgusida uning mehnat faoliyati samarali bo'lishiga asos bo'ladi. Tarbiyaning bosh vazifasi jamiyat hayotida zarur bo'lgan kerakli sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan shaxsni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Tarbiyali bo'lish- bu xulq – atvorini nazorat qilishdan iborat. Bunday nazorat insonga yomon xatti- harakatlarni bajarmaslik imkoniyatini beradi. Agar shaxs xulq atvorini axloqiyligi haqida qayg'ursa, u ijtimoiylashuvga erishgan bo'ladi.

Tarbiya vositalari sifatida o'ziga xos o'rinni kompleks, global va har taraflama o'tkaziladigan ta'sirlar egallaydi. Ular qatoriga, masalan, psixoterapiyani, ijtimoiy- psixologik treningni va boshqa psixokorreksiya turlarini ko'rsatish mumkin.

So'ngi paytlarda shaxsga psixoterapevtik va psixokorreksion ta'sir vositalarini, uslublarini qo'llash keng tarqalgan.

Psixoterapiya pedagogik psixologiyaning bir bo'limi emas, balki to'la psixogen tabiatga ega bo'lgan, insonning psixologik holatiga bog'liq kasalliklarni davolash yoki ularni oldini olish vositasi deb tushunilgan.

Psixokorreksion uslublarni qo'llash deb, psixolog- psixoterapevt va mijoz muloqotiga aytiladi.

Psixoanaliz — bu shaxsning ongsiz ruhiy jarayonlari va xatti-harakatlarini o'rganishga qaratilgan psixologiya (va psixiatriya)ning bir yo'nalishi.

Ajdodlarimiz asrlar davomida sevib mutolaa qilgan “Pandnoma”, “Siyosatnoma”, “Qobusnoma”, “Axloqi muhsiniy”, “Axloqi jaloliy”, “Axloqi nosiriy”, “Qonuni hikmat”, “Odob as-solihin”, “Turkiy “Guliston” singari asarlar shular jumlasidandir. Ushbu nodir asarlarda avval axloq-tarbiyaga oid biror so'z va tushunchani izohlab, keyin unga o'quvchi amal qilish uchun naqliy va axloqiy dalillar keltiradi. Umuman ularning mazmun-mundariyasi, ularda ilgari surilgan ilg'or g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.



„Tarbiya“ soʻzi arabcha „robba“ feʼlidan olingan boʻlib, oʻstirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi maʼnolarini bildiradi. Musulmon ulamolar „Tarbiya“ni bir necha xil taʼrif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha taʼriflaydi: „Tarbiya bir narsani astasekin kamoliga yetkazishdir“, - deydi. Rogʻib Asfihoniy esa quyidagicha taʼrif beradi: „Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga oʻtkaza borib, batamomlik nuqtasiga yetkazishdir. Tarbiyaning maʼnolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uygʻunlik hamda muvozanat ila oʻstirishdir“- degan chiroyli fikrlarni ilgari surganlar.

Bolalar hayotining birinchi yilidanoq faoliyatning eng oddiy turlari undagi shaxsiy qobiliyatlar, xususiyatlar, tevarak-atrofga maʼlum bir munosabatning shakllanishiga asos boʻlib xizmat qiladi. Masalan, kattalarning bolalar bilan boʻladigan hissiy, hissiy-predmetli munosabatlaridanoq bolada dastlabki ijtimoiy talabni vujudga keltiradi, dastlabki harakat va tasavvurlar, taassurotlar shakllana boshlaydi. Harakat usullarini egallab borish orqali bolada faollik rivojlanadi.

Ammo faollikning qay darajada rivojlanib borishi irsiyatga hamda taqlidchanlik qobiliyatiga bogʻliq. Bola hayotining dastlabki yillarida kattalar bilan boʻladigan munosabati va narsa-buyumlar bilan bajargan harakati asosiy faoliyat turi hisoblanadi.

Bola bilan muomala qilish orqali kattalar ularni asta-sekin buyumlar olamiga olib kiradilar. Mana shu yoʻl bilan bola buyumlar bilan boʻladigan faoliyatning oʻziga xos tomonlarini egallab boradi.

2,5 yoshdan keyin buyumlar bilan boʻladigan faoliyatda bolalar ancha yuqori koʻrsatkichlarga erishadilar va ularning oʻyin hamda tasviriy faoliyatga oʻtishlari uchun asos yaratiladi. Kattalar tomonidan tashkil etilgan muomala munosabatlari-da, faoliyatlarda oʻz-oʻzini anglab olishning dastlabki shakllari shakllanadi.

Mashgʻulotlardagi oʻquv faoliyati orqali bolalar tevarak-atrofidagi tabiat toʻgʻrisida, ijtimoiy hayot, kishilar toʻgʻrisidagi bilimlarni oʻzlashtirib oladilar. Shuningdek, ularning aqliy va amaliy bilimlari kengayib boradi. Agar taʼlim jarayonida 3-4 yoshli bolalar diqqati tabiat, kishilar toʻgʻrisidagi konkret faktlarga qaratilsa, 5-6 yoshli bolalarga taʼlim berishda asosiy eʼtibor muhim bogʻliqliklar va munosabatlarga, ulardagi oddiy tushunchalarni shakllan tirishga qaratiladi. Bular orqali bolalarda tushunarli tafakkur rivojlantiriladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun oʻqish asosiy faoliyat boʻlib qoladi va bu faoliyatni bolalar ijtimoiy ahamiyatli faoliyat deb anglay boshlaydilar. Bola oʻzini maktab oʻquvchisi deb tushuna boshlaydi.

Demak, Bolani tarbiyalashda, uning rivojlanishida faoliyat yetakchi rol oʻynaydi.



Shuning uchun ta'lim-tarbiya tashkilotlarida va oilada bolaning hayotini u turli-tuman faoliyatlar bilan shug'ullana oladigan qilib tashkil etish kerak. Bunga albatta, bolalar faoliyatining mazmunini boyitib borish, yangi bilim malakalarni singdirish mustaqilligini rivojlantirish bilan erishiladi.

Har bir faoliyat turining mazmuni va tuzilishining ijtimoiy- tarixiy tabiati har bir yosh avlodga obyektiv ravishda berilgan bo'ladi. Odamlarning ishlab chiqarish qurollarida, bilimlarda, san'atda, axloqda va hokazolarda jamlangan sermahsul faoliyati natijalari birgalikdagi faoliyatda va muloqotda bo'lgan paytda tarbiya va ta'lim vositasida katta avloddan kichiklarga beriladi. Odam shaxsining ijtimoiy tabiati ana shunday shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Barkamol avlod orzusi; Toshkent, 1999, 127-147- betlar.
2. Ivanov. I, Zufarova.M, "Umumiy psixologiya". O'z FMJ., 2008
3. Safayev N.S, Mirashirova N.A, Odilova N. G, "Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti",
4. Xaydarov F. I, Xalilova. N "Umumiy psixologiya" T; "Fan va texnologiyalar" markazining bosmaxonasi. 2009.
5. V. A. Kruteskiy" Pedagogik psixologiya asoslari" Toshkent, 1976, 223- 240- betlar.
6. Vahobova, O' (2023). "Turli psixodiagnostik metodikalarni qo'llashning xususiyatlari " . Journal of pedagogical and psychological studies, 1(1), 134-138 betlar.
7. N.G.Malikovna. "Bolalarni maktabga tayyorlashda ota-onalarning o'rni".Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari 1 (2) 100-105,2023
8. Qodirova F.R, Toshpo'latova SH.Q, Kayumova N.M., Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik.